

YAROSLAV MUDRIY DAVRIDA KIYEV RUSI

Jumayev Jo‘rabek Boboqul o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o‘qituvchisi

Musulmonqulova Ozoda Ikromjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Kiyev Rusi davlatining mashhur knyazlaridan biri Yaroslav Vladimirovichning faoliyati tarixi haqida so‘z boradi. Shuningdek, maqolada Kiyevning Buyuk knyazi davrida davlatning boshqarilishi, olib borgan islohotlari va yurishlari to‘g‘risida yetarlicha ma‘lumotlar berib o‘tildi.

Kalit so‘zlar: Kiyev Rusi, Vladimir, Yaroslav Mudriy, Rus haqiqati, Novgorod, Kiyev, “Yaroslavl sudi”, «Mufasssal haqiqat», Vizantiya malikasi.

Qadimgi Rus davlati feodal tuzum asosida Kiyevda tashkil topgan bo‘lib, bu krepostnoylik (feodal davlatlarda dehqonlarning to‘liq va mash‘um ko‘rinishini mustahkamlagan huquqiy meyorlar) va tobe dehqonlar ustidan hukmronlik qilishga asoslangan tuzum edi. Qadimgi Rus davlatida sharqiy slavyanlarning knyazlik qabilasi hukmron bo‘lgan. O‘sha davrda yozilgan qo‘lyozmalarining guvohlik berishicha, hali yagona qadimgi rus davlati bo‘lmagan paytda o‘zlarining yer haqida va qabilalari haqida o‘z qonunlari bor edi. Qadimgi Rus davlatida knyazlik qabilasi vaqtida qishloq aholisining asosiy qismi feodal tuzumiga tobe bo‘lmagan edi va o‘z erki qo‘lida edi.

Knyazlik boshqaruvini qabila oqsoqollari birgalikda boshqarishlar edi. Ular qabila yig‘inida eng zo‘r oqsoqolga tayanishar edi. Bu oqsoqol har qanday muhim masalani hal qila olardi. Tarixchilarning ma‘lumotlariga qaraganda “qabila” atamasi (qabila, arab.-urug’-aymoq, bir ota-onadan tarqalgan bir necha guruh uyushmasi, etnik birlik), nafaqat odamlarning birlashuvi balki keng ma’noda qon- qarindoshlik birlashuvidir[5].

Tarixdan ma‘lumki, Kiyev Rusi davlatiga 882-yilda asos solingan bo‘lib, ushbu davlatning beshinchi knyazi Vladimir Svyatoslavich hisoblanadi. Vladimir barcha

sharqiy slavyanlarni birlashtirdi, va qariyb butun Sharqiy Yevropani qamrab oldi. Uning davrida Rus davlati chegaralari g'arbda-Visla havzasigacha, shimoli-g'arbda-Bol'tiq dengizining Fin ko'rfazigacha, shimolda-Pechora bilan Kamagacha cheksiz Taygagacha, sharqda-Oka daryosining quyilishigacha yetib borgandi. Rus davlatining janubiy chegaralari 1000 km.dan ortiq masofani tashkil qilardi[3].

1014-yilning dekabrda Novgorod knyazi Yaroslav Kiyevga boj to'lashdan bosh tortgach, unga qarshi urushga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda 1015-yil fevralda Vladimir vafot etadi.

Uning vafotidan keyin Rusda og'ir zamonlar boshlandi, uning o'g'illari ko'p edi, ular uzoqqa cho'zilgan o'zaro ichki urushlar boshlashdi, bu urushlarga pecheneglar, yollanma varyaglar ham qo'shildi. Vladimirning o'g'li keyinchalik Dono (Mudriy) deb nom olgan Yaroslav 1019-yilda Kiyevning Buyuk knyazi bo'ldi va 1019-1054-yillarda boshqardi. Uning davrida maorifga e'tibor berildi, [kitoblar tarjima qilindi](#), kutubxonalar tashkil qilindi, hozirgi vaqtda ham Kiyev, Chernigov va Novgorodda Yaroslav davrida qurilgan binolar saqlanib qolgan. Knyaz Yaroslav Novgorodda tartiblar to'g'risida qonun yaratib, u "Yaroslavl sudi" deyiladi[2].

1036-yilda Kiyev yaqinida pecheneglar qattiq mag'lubiyatga uchratildi, shundan keyin ularning hujumi batamom to'xtadi. Rusda asta-sekin tarkib topa boshlagan feodal urf-odatlar va qonunlar ham feodallarning manfaatlarini himoya qilgan. Yaroslav Mudriy zamonida rus yozma qonunining yaratilishiga asos solingan. O'sha zamondagi qonunlar "Russkaya Pravda" deb atalgan to'plamga yozib qoyilgan. Yaroslavning o'g'illari uni yangi qarorlar bilan to'ldirganlar.

1072-yilda uch aka-uka Izyaslav Yaroslavich, Svyatoslav Yaroslavich va Vsevolod Yaroslavichlar Kiyevda yangi qonun "Russkaya pravda" (rus huquqlari normalari to'plami) ni tuzishdi. Rus davlatining eng yirik yodgorligi "Rus haqiqati" hisoblanadi.

Unga quyidagilar kiradi:

1. Yaroslav haqiqati taxminan XI asrning 30-yillarida tuzilgan. Uning manbalarini odat huquqi, knyazlarning qonunchiligi, sud amaliyoti tashkil etadi.

2. Yaroslavichlar haqiqati esa 1052 yoki 1072 yillarda Kiyevda tuzilgan. Yaroslav haqiqati va Yaroslavichlar haqiqati Rus haqiqatining qadimiy matni hisoblanib, qisqa haqiqat deb yuritiladi.

3. «Mufasssal haqiqat» Yaroslav Ustavi va Vladimir Monamax Ustavidan iborat bo'lib, Monomax davrida (1112-1125 yillar) Kiyevda tuzilgan. Rus haqiqati vasiyat bo'yicha va qonuniy merosni tartibga solidi[2]. Meros qoldiruvchi faqat o'z oila a'zolariga vasiyat qilishi yoki kimnidir merosdan mahrum qilishi mumkin edi. Uning vasiyati o'zgarmas hisoblangan. Vasiyat bo'lmasa meros o'g'illar o'rtasida qonuniy tartibda taqsimlangan. Qizlarga sep-sidirg'a ajratilgan. Eng kenja o'g'ilga merosdan ko'proq - umumiy mulkdan o'z hissasi va uy, tomorqa o'tgan.

O'g'illar bo'lmasa, qizlar merosxo'r bo'lgan. Faqat boyarlarning qizlari merosxo'r bo'lishi mumkin edi. Smerdlarning qizlari meros huquqidan mahrum etilib, faqat erga tegmagan bo'lsa sep-sidirg'a uchun hissa olardi xolos. Boshqa barcha hollarda meros knyaz foydasiga hal qilinardi. Qaram dehqonlarning shaxsi va mulki erkin kishilarnikiga qaraganda kamroq darajada himoya qilingan. Masalan, Rus haqiqatida ognishanin (yuqori tabaqa vakili) yoki knyazlik erkagini o'ldirganlik uchun aybdor knyaz foydasiga 80 grivna, (Rus davlatida pul va og'irlik birligi, kumushdan yasalgan) erkin kishini o'ldirganlik uchun esa - 40 grivna, smerdni o'ldirganlik uchun bor-yo'g'i 5 grivna jarima to'lashi nazarda tutilgan[4].

Rus haqiqatida moddiy, jismoniy yoki ma'naviy talofat yetkazish hisobga olinmagan. Xoloplar va qullar qilgan jinoyatlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilmagan. Ular uchun xo'jayinlari javob bergan. Rus haqiqati bo'yicha, xolop erkin kishini ursa, erkin kishi xolopni o'ldirish huquqiga ega edi. Bu qoida knyaz Yaroslav tomonidan bekor qilinib, uning o'rniga aybdor xolopning xo'jayinidan jarima olinadigan bo'ldi. Jinoyat ishtirokchilari aybning darajasiga qarab ajratilmagan, ular bir xil jazolanganlar.

Yaroslav Mudriy davrida Rusning xalqaro aloqalari rivojlangan. Yaroslavning o'zi shved malikasiga uylangan, qizlarini esa fransuz, vengr va norveg qirollariga turmushga bergan. Yaroslavning o'g'li Vizantiya malikasiga uylangan. Yevropa

qirollari Kiyev knyazi oilasi bilan qarindosh bo'lishni sharaf deb bilar, bu esa qadimgi Rusning xalqaro ahamiyatidan darak berar edi. XI asr oxiri va XII asrning ikkinchi yarmida Rus davlatida shaharlarning rivojlanishi ko'zga tashlanadi[3]. Ba'zi shaharlar hunarmandchilik va savdo aloqalari rivojlangan shahar hisoblanadi.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, IX- X asrlarda 24 [ta shahar](#), XI asrda 62 ta shahar, XII asrda 119 ta yangi shaharlar paydo bo'lgan. Bu shaharlarda yashovchi hunarmandlar o'z mahsulotlarini chetga chiqarib sotganlar. Rus davlati rivojlanganini shundan bilamizki, hattoki pul muomalasida ham o'z pullariga ega edilar[1].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Oleg 882-yili o'z [lashkari bilan Kiyevni egallab](#), ayni paytda yozma manbalarda Kiyev Rusi nomini olgan davlatga asos soladi. Bu davlat taxtiga 1019-yilda Kiyevning Buyuk knyazi bo'ldi Yaroslav keldi va 1054-yilgacha boshqardi. Uning davrida maorifga e'tibor berildi, [kitoblar tarjima qilindi](#), kutubxonalar tashkil qilindi, hozirgi vaqtda ham Kiyev, Chernigov va Novgorodda Yaroslav davrida qurilgan binolar saqlanib qolgan. Knyaz Yaroslav Novgorodda tartiblar to'g'risida qonun yaratib, u "Yaroslavl sudi" deyiladi. Uning davrida Kiyev bijanaklardan tozalanib, g'alaba sharafiga Kiyevda Avliyo sofiya ibodatxonasi qad ko'taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rajabov R. Jahon sivilizatsiyalari tarixi. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2016. 201-204-b.
2. Salimov T. Jahon tarixi. (Yevropa mamlakatlari V-XV asrlarda). Toshkent. 2014. 102-103-b.
3. Salimov T., Sultonov F. Jahon tarixi. Toshkent. 2017. 97-b.
4. Semenov V. F. O'rta asrlar tarixi. Toshkent. 1974. 123-125-b.
- 5 www.wikipedia.org. internet sayti